

# **ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР**

---

## **ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ**

---

## **INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY**

**№10 (2019)**



**TOSHKENT-2019**

**Педагогика ва психологияда инновациялар**  
**Инновации в педагогике и психологии / Innovations in pedagogy and psychology**  
№10 (2019) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2019-10>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Аскарров Абдор Давлатмирзаевич**  
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Педагогика йўналиши

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Мухамедова Дилбар Гафурджановна**  
психология фанлари доктори, профессор

Психология йўналиши

**Педагогика ва психологияда инновациялар журнал таҳририй маслаҳат кенгаши**  
**Editorial Board of the Journal of Innovations in pedagogy and psychology**  
**Международный редакционный совет журнала Инновации в педагогике и психологии**

**Уразова Марина Батировна**  
Педагогика фанлари доктори

**Муслимов Нарзулла Алиханович**  
Педагогика фанлари доктори, профессор

**Джорасев Мухамматрасул**  
Педагогика фанлари доктори, профессор

**Нурманов Абдиназар Ташбаевич**  
Педагогика фанлари доктори

**Халиков Аъзам Абдусаломович**  
Педагогика фанлари доктори

**Аюпова Мукаррам**  
Педагогика фанлари номзоди, профессор

**Ҳамидов Жалил Абдурасулович**  
Педагогика фанлари доктори

**Тўракулов Олим Холбўтаевич**  
Педагогика фанлари доктори

**Шорена Дзамукашвили**  
Педагогика фанлари доктори

**Шорена Вахтангишвили**  
Педагогика фанлари доктори

**Саипова Малоҳат Латиповна**  
Психология фанлари бўйича фалсафа доктори

**Саҳифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амир Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

|                                                                                                                                                              |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>1.Bultakova D.</b><br>O'ZBEK TILIDAGI ARGOLARNING VUJUDGA KELISH USULLARI.....                                                                            | 4  |
| <b>2.G'aybullayeva D.M.</b><br>YOSHLARDA INTERNETDAN FOYDALANISH MADANIYATINI<br>SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.....                       | 7  |
| <b>3.Nazarov T.T.</b><br>TALABALARNI FUQARO MUHOFAZASIGA TAYYORLASHDA<br>O'QUV-TAKTIK MASHG'ULOTLARNING O'RNI.....                                           | 11 |
| <b>4.Umarova R.U.</b><br>TA'LIM JARAYONIGA ABOROT TEXNOLOGIYALARINI<br>RIVOJLANTIRISH BUGUNGI KUN ZARURATI.....                                              | 17 |
| <b>5.Yusupova Y.M., Mominova Kh.E.</b><br>PSYCHOCORRECTIONAL WORK OF PSYCHOLOGISTS OF<br>PRESCHOOL INSTITUTIONS.....                                         | 20 |
| <b>6.Жўраев В.Т.</b><br>ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ<br>КАМЧИЛИКЛАРИ.....                                                                           | 24 |
| <b>7.Yo'ldosheva F.A.</b><br>STRESS VA UNI O'RGANISHNING QISQACHA TARIXI.....                                                                                | 28 |
| <b>8.Arzikulov U.M.</b><br>PSYCHOLOGICAL AND CRIMINAL LEGAL ASPECTS OF SUICIDAL<br>BEHAVIOR.....                                                             | 33 |
| <b>9.Fatitdinova D.</b><br>THE INFLUENCE OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN<br>THE FAMILY ON PARENTING.....                                                   | 36 |
| <b>10.Нарзикулова Ф.</b><br>ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ И<br>ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ, КАК УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ<br>ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА УЧИТЕЛЯ..... | 40 |
| <b>11.Тоштемиров О.А., Саидова А.Я.</b><br>СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИНТЕГРАЦИИ<br>ФИЗИЧЕСКОГО И КУЛЬТУРНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ.....              | 46 |
| <b>12.Турсунова Ш.Б.</b><br>ЎҚУВ ФАОЛИЯТИ САМАРДОРЛИГИНИНГ ПСИХОЛОГИК<br>МЕХАНИЗМЛАРИ.....                                                                   | 51 |

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Nazarov Tohir Toshpo'lotovich  
BuxDU Harbiy ta'lim fakulteti  
Maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi

## TALABALARNI FUQARO MUHOFAZASIGA TAYYORLASHDA O'QUV-TAKTIK MASHG'ULOTLARNING O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2019-10-3>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarni fuqaro muhofazasiga tayyorlashning o'quv-taktik mashg'ulotlarini rejalashtirish, undagi tuzilmalarni shakllantirish hamda mashg'ulotlarni o'tkazish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** xavf-xatar, bino xom-ashyo, tabiiy, ekologik, texnogen, xavsizlik, epidemiya, antropogen, zaharli moddalar, seysmik, avariya, shaxsiy himoya vositalar, mashg'ulot, reja, shtab, kompleks.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы планирования тактических занятий по подготовке студентов к гражданской защите, формированию структур и учебной деятельности.

**Ключевые слова:** опасность, строительство, сырье, природные, техногенные, безопасность, эпидемия, антропогенные, токсичные, сейсмические, аварии, средства, индивидуальной, защиты, план обучения, штаб, комплекс.

### ANNOTATION

This article discusses the planning of tactical trainings for preparing students for civil protection, the formation of structures and training activities.

**Key words:** hazard, building, raw materials, natural, environmental, manmade, safety, epidemic, anthropogenic, toxic, seismic, accident, personal, protective, equipment, training plan, headquarters, complex.

**F**avqulodda vaziyatlar oqibatida ko'riladigan zararlarning oldini olish tadbirlarini quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Doimiy o'tkaziladigan tadbirlar. Ular uzoq muddatli prognoz asosida tuziladi: SNiP talablarini hisobga olgan holda, qurilish-montaj ishlarini olib borish;

- talabalarni xavf-xatar haqida xabardor qilishning ishonchli tizimini yaratish;
- talabalarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash va himoya inshootlarining yetarli zaxirasini tuzish, nurlanish, kimyoviy va bakteriologik kuzatuv ishlarini tashkil etish;
- talabalarni favqulodda vaziyatlar chog'ida o'zini qanday tutish va faoliyati xususida umumiy o'quvlarni tashkil etish;
- epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlarini o'tkazish;
- xavfli ob'yektlarni iqtisodiy tang joylarda qurilishdan voz kechish;
- odam sog'ligi va hayoti uchun xavfli bo'lgan ob'yektlarni boshqa mahsulot chiqarishga o'tkazish, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini yo'qotish bo'yicha rejalar tuzish (va sh.k.).

Favqulodda vaziyatlar vaqti aytib berilgach, ko'rilishi kerak bo'lgan himoya tadbirlari: prognoz uchun zarur bo'lgan razvedka va kuzatish tizimini jonlantirib yuborish, talabalarga favqulodda vaziyatlar haqida xabar beruvchi sistemani tayyor holga keltirish, iqtisodiy va jamoat hayotini maxsus qoida asosiga qayta qurish, favqulodda holatgacha, yuqori xavfli manbalarni favqulodda vaziyatlar holatida neytrallashtirish, ular ishini to'xtatib qo'yish, qo'shimcha mustahkamlash yoki demontaj qilish, avariya qutqaruv xizmatini tayyor holatga keltirib qo'yish, qisman evakuatsiya qilish.

Ushbu tadbirlar ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, bu zarur tadbirlarni amalga oshirish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi, binobarin, uzoq yillik prognoz zarur bo'ladi. Ya'ni boshqa, zarurati bundan kam bo'lmagan tadbirlarni tez va qisqa muddatda bajarish mumkin. Bunday tadbirlar uchun qisqa muddatli prognoz zarurdir. Ko'pgina himoya tadbirlarini amalga oshirish uchun favqulodda vaziyatlarning paydo bo'lish vaqtini aniq bilish shart emas, ayrim tadbirlarni oldindan ham bajarib qo'yiladi.

Ushbu mulohazalar aniq himoya tadbirlari to'plamini tanlash zaruratini belgilaydi. Bunda boshlang'ich manba sifatida, bo'lishi mumkin bo'lgan tadbirlar katalogi, ularning narxлари va rejasini aytib o'tiladi.

Favqulodda vaziyatda fuqaro muhofazasini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish.

Favqulodda vaziyatda fuqaro muhofazasini ta'minlashda rejalashtirish aso-siy omillardan biridir. U maqsadga erishish borasida vaqt, mablag' va ijrochilarni aniqlashtiradi. U sharoitni ilmiy asosda prognoz qilish, har tomonlama tahlil qilish, moddiy va ma'naviy zaxiralarni baholash va talabalarni favqulodda vaziyatlar holatida himoya qilishning zamonaviy, nazariy va amaliy tadbirlariga asoslanadi.

Rejalashtirishning natijasi sifatida ma'lum hujjat-reja tuziladi. U quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi: aniq ko'rsatkichlar (ish turlari, tadbirlar), bu ishlarni bajarish muddati, rejani bajarish uchun zarur zaxiralar (turlari, soni, manbalari) har bir bandni bajaruvchi mutasaddi shaxslarga topshiriqlar, reja bajarilishining borishini nazorat qilish usullari (va sh.k.).

Rejaning matn qismi ikki bo'limdan tashkil topgan bo'lishi kerak: birinchi bo'limda sharoitni baholash natijasida qilingan xulosalar bo'lsa, ikkinchi bo'limini favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda va xavf tug'dirganda talabalarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha belgilangan tadbirlar tashkil etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir: xabar berish tartibi, razvedka va nazoratni tashkil qilish, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish uchun kuch va vositalarni tayyorlash, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini ogohlantirish va yumshatish tadbirlari, odamlarni va moddiy boyliklarni zudlik bilan himoyalash choralari, tibbiy ta'minot, dozimetrik va kimyoviy nazorat, muassasani avariyasiz to'xtatish tadbirlarini qo'llash tartibi, odamlarni himoya qilishni

tashkil etish, evakuatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish, boshqaruvni tashkil etish, har xil sharoitlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borish tartibi va navbati, yuqori tashkilotlarga, favqulodda vaziyatlar komissiyasiga axborot berish tartibi.

Rejaga turli ma'lumotnoma va tushuntiruvchi manbalar (chizma, matn) ilova qilib qo'yilishi mumkin.

Reja aniq, mazmunan to'liq, qisqa, iqtisodiy jihatdan, maqsadga muvofiq va ob'yektning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan bo'ladi. Rejaning hayotiyligi kelib chiqishi bo'yicha tabiiy va texnogen Favqulodda vaziyatda fuqaro muhofazasini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilishda muntazam mashq va o'quvlar jarayonida sinab boriladi.

Fuqaro muhofazasining amaliy mashg'ulotlarmi zamon talablariga mos holda o'tkazish, talabalarni dushman tomonidan qo'llaniladigan zamonaviy qurol vositalaridan, shuningdek, hududimizda kuzatiladigan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari va fojialar oqibatlaridan muhofaza qilish, odamlarda ma'naviy - ijtimoiy va psixologik sifatlarni tarbiyalash, ob'ektlarni uzluksiz faoliyat ko'rsatishni ta'minlash, qutqaruv va tiklov ishlarini amalga oshirish bo'yicha bilimlarini, qobiliyatlarini ko'paytirish imkonini beradi.

Favqulodda vaziyatlar davlat tizimida fuqaro muhofazasining quyidagi amaliy mashg'ulotlari tashkil etiladi va o'tkaziladi:

- 1.Shaxsiy tarkib uchun maxsus - faktik mashg'ulotlar;
- 2.Rahbar tarkib uchun shtab - komanda mashg'ulotlari;
- 3.O'qitilayotgan hamma toifadagilar uchun kompleks mashg'ulotlar.

Maxsus taktika amaliy mashg'ulotlar tuzilmalarning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga o'rgatishdan iborat. Bunday mashg'ulotlarda har qanday favqulodda vaziyatning (harbiy davrda ham, tinchlik davrda ham) oqibatlarini tugatish, talabalarni va ishlab chiqarish tarmoqlarini (muassasani) muhofaza qilish choralari ko'riladi va o'tkaziladi hamda komandir- boshliq tarkibining amaliy mahorati takomillashtiradi.

Tuzilmalar maxsus taktik mashg'ulotlarda o'z ob'ektlarining moddiy -o'quv bazalaridan: har xil qurilmalaridan, jamoaviy himoya vositalaridan foydalanadilar.

Maxsus taktik amaliy mashg'ulotlarga tayyorlash.

Mashg'ulotnini rejalashtirish, mashg'ulotlarga o'z vaqtida va har tomonlama rejaga muvofiq holda tayyorlanish kerak.

Mashg'ulotni rahbarning ko'rsatmalari asosida mashg'ulotni o'tkazish rejasi, tashkiliy ko'rsatmalar, o'rinbosarlarning xususiy rejalari va boshqa zaruriy hujjatlar tayyorlab ishlab chiqiladi. Maxsus taktik amaliy mashg'ulotning asosiy o'quv-uslubiy hujjati amaliy mashg'ulotni rejasi hisoblanadi, unda mashg'ulotning borishi, o'quv savollarining izchilligi, mashg'ulotlar bosqichlar bo'yicha aks ettiradi.

Maxsus taktik mashg'ulotning rejasi matn bo'yicha ishlab chiqiladi va talabalar uchun o'quv maqsadlari, mashg'ulotni o'tkazish vaqti, o'quv mashg'ulotiga jalb qilinadigan bo'linmalarining tarkibi, texnikalar soni va sarf bo'lish me'yorlari, mashg'ulotning bosqichlari, ularning davomiyligi va o'quv savollari, taktik sharoit, kuchlarni guruhlash, boshqarish maskanlarining joylashgan yeri, zamonaviy qurollari va xodimlarning vazifalarini o'z ichiga oladi. Maxsus taktik mashg'ulotning yaxshi ishlab chiqilgan rejasi va boshqa hujjatlari, uning muyaffaqiyatli o'tishiga imkon yaratadi.

Mashg'ulotnini o'tkazish. Mashg'ulotni tuzilmalar doimiy joylashgan joyda bevosita yoki to'satdan "Ogohlantirish" ishorasi bo'yicha boshlanadi. Buning uchun shaxsiy tarkibga xabar berish va yig'ish, texnikalarni olib chiqish va ularni ishga tayyorgarligini tekshiriladi.

Tuzilmalarning boshliqlariga taktik vazifani tekshirish tavsiya etiladi: bunda vazifani anglab olish, sharoitni baholash, qaror qabul qilish, qo'l ostidagilarga vazifalar qo'yish

va ularning harakatlarini tashkil etish uchun zaruriy vaqt belgilanadi. Mashg'ulot rahbari tuzilmalar boshliqlarining qarorlarini tinglaydi va tasdiqlaydi, kerak bo'lgan paytda sharoitni chuqurroq tahlil etib, ular yordamida eng samarali qaror qabul qiladi.

Mashg'ulot rahbari shaxsan va yordamchilari orqali ob'ektdagi radiatsiyaviy, kimyoviy, biologik holatning o'zgarishini, odamlar, texnikani ishdan chiqishini ko'zda tutgan holda mashg'ulotlarni ko'paytirib boradilar. Mashg'ulotning rahbari sharoitga qarab tuzilma boshliqlaridan yangi qarorlar, buyruqlar qabul qilishga, qo'l ostidagilarga yangi vazifalar qo'yishga va ulardan o'ziga xos harakatlar qilishga erishadi. Tuzilmalardagi fuqarolar asbob - uskunada, texnikada va mexanizmlarda o'z mutaxassisligi bo'yicha amaliy vazifalarni bajaradilar. Mashg'ulotlar tizimlarni shikastlanish o'chog'idan olib chiqish, talabalarni tibbiy, texnikani esa maxsus ishlovdan o'tkazish bilan tugallanadi. So'ngra maxsus taktik mashg'ulotlar tahlil qilinadi.

Komanda-shtab mashg'ulotlari - favqulodda vaziyat davlar tizimining shtab boshliqlarini, fuqaro muhofazasi xizmat boshliqlarini, ob'ektlarning komanda - boshliqlar tarkibini o'z funksional burchlarini bajarishga, birgalikda tayyorlashning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Komanda shtab mashg'ulotniining maqsadlari, har xil bo'ladi. Bularidan asosiylari: rahbarlarni va komanda boshliqlarining ob'ekt fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarishda nazariy bilimni va amaliy mahoratini oshirish, xodimlar, tuzilmalar va qo'shinlar bilan o'zaro harakat qilishini ta'minlashdan iboratdir.

Komanda-shtab mashg'ulotlari aniq taklik sharoitga yaqinlashtirilib boriladi. Mashg'ulotning mavzusi va o'quv savollari odatda oldinda turgan har taraflama mashg'ulotning mavzusi bilan bog'langan bo'ladi.

Komanda-shtab mashg'ulotlaridan oldin shtab mashqlarni o'tkazish tavsiya etiladi. Ularning sonini va olib borish vaqtini ob'ekt fuqaro muhofazasi boshlig'i komanda - shtab mashg'ulotlari oldida turgan maqsadga hamda rahbar tarkibi va boshqarish organlarining tayyorlanish darajasiga qarab aniqlaydi.

Mashg'ulotlarga razvedka, aloqa bo'linmalari, jamoat tartibini saqlash, sanitariya-diyujinalar hamda umumiy vazifalarni bajaravchi tuzilmalar jalb etiladi.

Ob'ekt fuqaro muhofazasi boshlig'i komanda - shtab mashg'ulotnining rahbari hisoblanadi.

Kompleks (majmuaviy) mashg'ulotni-ob'ektni tayyorlashning muhim shakllaridan bo'lib, u fuqaro muhofazasi bo'yicha o'rnatilgan aylanmani amalga oshirish bilan tugallanadi.

Kompleks mashg'ulotning mohiyati shundan iboratki, uning hamma qatnashchilari bir vaqtda yagona taktik sharoitda, moddiy ishlab chiqarish bazasida harakat qilib, ob'ekt rejasida ko'zda tutilgan ishlab chiqarish faoliyatini to'xtatmasdan amalga oshiradi.

Odatda mashg'ulotda ob'ekt fuqaro muhofazasi rejasining realligi fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishga ob'ektning tayyorgarlik darajasi va dushman tomonidan qo'llangan zamonaviy qurollar asoratlarini, shuningdek, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariya va halokatlarining oqibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlar o'tkazilishiga e'tibor beriladi. Ob'ektning favquloddagi vaziyatlar paytida uzluksiz ishlash yo'li va usullari tekshirib ko'riladi.

Fuqaro muhofazasining hamma kompleks mashg'ulotni tadbirlari, xo'jalik faoliyatlarini hisobga olgan holda o'tkazish uchun imkoniyat beradi. Mashg'ulotni rahbari odatda, ob'ekt fuqaro muhofazasining boshlig'i hisoblanadi, ayrim hollarda uning yordamchilari ham bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlarga hamma rahbar va komanda boshliqlari, tuzilmalar, tuzilmalarga kirmaydigan fuqarolar ham jalb etiladi.

Tuzilmalar ma'lum bosqichlarda o'z vazifalarida bajaradilar, rahbar xodimlar va

komanda-boshliq tarkiblari esa har bir mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. Har taraflama mashg'ulotlarda shunday murakab dinamik holatni yaratish kerakki, ular zararlanish o'chog'larini va zaharlangan hududlarni ifoda etib, qatnashchilar epchillik, mohirlik, dalillik va ehtiyotkorlikni ma'lum qilsin.

Mashg'ulotlar davomida rahbar, komanda - boshliq tarkiblari va fuqaro muhofazasi kuchlarini tashkil etishi, tuzilmalar esa kuchli radioaktiv, kimyoviy, biologik zararlanishda va kuchli yong'inlarda harakat qilishni o'rganadilar. Mashg'ulotlarda shablonga yo'l qo'ymaslik, takomillashtirilgan o'quv usullarini tatbiq etish, o'qiyotganlarning harakatlaridagi sustkashlikni, xotirjamlikni keskin tugatish va soddalikka yo'l qo'ymaslik lozim.

Tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlaridan biri favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga ma'naviy-ruhiy tayyorlash hisoblanadi. insonning favqulodda vaziyat sharoitiga tushib qolishi doimo uning ruhiyatiga ta'sir qiladi. Tibbiyot statistikasi ma'lumotlariga ko'ra halokatli favqulodda vaziyatlardan so'ng ko'pchilik og'ir ruhiy jarohat oladi va ruhiy muolajaga muhtoj bo'ladi.

Ma'naviy so'zi "kishining ichki dunyosiga oid" degan ma'noni bildiradi. Bu ijtimoiy ongning bir shakli bo'lib, odamlar yurish-turishda, muomalada, amal qiladigan tamoyillar, me'yorlarning majmuidir. Bu me'yorlar odamlarning bir-biriga va insoniy birlikning turi shakllari (oila, mehnat jamoasi, millat, umuman jamiyat)ga muayyan munosobatlarining ifodasi hisoblanadi.

Xatti-harakatlarga va ularning sabablariga ma'naviy (axloqiy) saboq berish ma'naviyatning o'ziga xos bir jihatini tashkil qiladi. Jamiyatda, talabani muayyan bir qatlam orasida yaxshilik va yomonlik haqida burch, vijdon, vijdonsizlik to'g'risida tashkil topgan tasavvur bunday baho berishga asos bo'lib, jamiyatning muayyan aholi qatlamining shaxsga bo'lgan talablari mana shu tushunchalarda ifoda topadi.

Fuqaro muhofazasidagi ma'naviy tayyorgarlik - bilim oluvchilarda fuqaro muhofazasiga oid vazifalarni bajarish mamlakat, xalq oldidagi burch ekaniga ishonchni tarbiyalash, bu tinchlik va harbiy harakatlar vaqtlaridagi o'z vazifalarini vijdonan bajarishga, shunday vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zini tayyorlash zarurligini tushunish, ruhiy qiyinchiliklarga chidashga tarbiyadashdir.

Murakkab sharoitda istalgan kishining hayot uchun xavfli vazifani bajarishga tayyor ekaniga ishonib ish tutib bo'lmaydi. "Hech nimadan qo'rqmaydigan" odam bo'lmaydi. Hamma gap sarosima hissini yengib o'tish uchun, to'g'ri qarorga kelib, harakat qila boshlash uchun kerak bo'ladigan vaqtda shoshilinch vaziyatga tayyorgarlik ko'rgan odamda bu anchagina tez bo'ladi. Tayyorgarligi yo'q kishida esa harakatsizlik, hovliqish uzoq vaqt saqlanish turadi hamda psixika buzilishini kuchaytirib yuboradi.

Odamning hayot uchun xavfli sharoitda qo'rqishini nazoratli va nazoratsiz qo'rqishga bo'lish odat bo'lib qolgan. Mutaxassislarning qayd etishlaricha "qo'rqishni nazorat qilayotgan bo'lsang, demak duch kelishing mumkin bo'lgan holatlarni angelayotgan bo'lasan - da, ularga duch kelmaslikka harakat qilasan. Bunday holda hama vaqt, iloj topasan. Nazoratsiz qo'rquv esa - bu vahimani o'zginasi".

---

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

---

1.O.Qudratov, T.G'aniyev "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi". 2."Yangi asr avlodi". Toshkent 2005-yil.

3.M.Q.Oripova, I.R.To'xtayev Fuqaro muhofazasi O'quv uslubiy qo'llanma Buxoro 2006-yil.

4.I.I.Fatoyev, I.R.Tuxtayev, S.K.Subxonova "Fuqaro muhofazasi" fanidan savollar va javoblar. Buxoro 2007-yil.

5.Sh.Ubaydullayev, A.Norboyev, M. Ziyayeva, M. Ortiqov, O'.Yo'ldoshev, O.Ortiqov Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent - "Ilm Ziya" - 2007.

6.T.B.Tuychiyev "Fuqaro muhofazasi asoslari" Toshkent-2003-yil.

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

---

## ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

---

## INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

**№10 (2019)**

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амир Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000